www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

O‘SMIRLARDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Axatov Yo‘ldoshjon Hamzayevich
Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik imkoniyatlari, iroda tarbiyasi, bolalarda yomon sifatlar paydo bo‘lishi va uning oldini olish, O‘z-o‘zini tarbiyalashning aniq rivojlanish yo‘li, inson ontogenezidagi rivojlanish bosqichlari, o‘z-o‘zini jismoniy va irodaviy tarbiyalash, o‘quvchilarda jasurlik, chidamlilik, o‘z-o‘zini boshqara olish, matonat, o‘z-o‘ziga ishonch kabi irodaviy sifatlarni maxsus vosita va mashqlar orqali tarbiyalash haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: psixologik muhit, individual xususiyatlar, motivlashtirish, kasbiy rivojlantirish irodaviy sifat, psixologik omillar, o‘quv faoliyati, xulq-atvor, axloqiy his-tuygular, iroda tarbiyasi, tashabbuskorlik, dadillik, sabotlilik, chidamlilik, qat’iylik, kamtarlik va intizomlilik

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические возможности формирования волевых качеств у подростков, волевое воспитание как способ появления у детей дурных качеств и его профилактика, конкретный путь развития самовоспитания, этапы развития в онтогенезе человека, физическое и волевое самовоспитание, такие как смелость, выносливость, самоконтроль, упорство, уверенность в себе у воспитанников. речь идет о воспитании волевых качеств специальными средствами и упражнениями.

Ключевые слова: психологический климат, индивидуальные особенности, мотивация, профессиональное развитие волевых качеств, психологические факторы, учебная деятельность, поведение, нравственные чувства, воспитание воли, инициативность, смелость, выдержка, стойкость, твердость, скромность и дисциплинированность

Annotation. This article talks about the psychological possibilities of the formation of volitional qualities in adolescents, the emergence and Prevention of volitional qualities in children, the exact development path of self-education, stages of development in human ontogenesis, physical and volitional self-education, the education of volitional qualities such as courage, endurance, self-control, perseverance, self-confidence in students through special means and exercises.

Keywords: psychological environment, individual characteristics, motivation, professional development volitional quality, psychological factors, educational activities, behavior, moral emotions, will upbringing, initiative, boldness, perseverance, endurance, perseverance, humility and discipline

KIRISH: Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog‘liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bo‘lsa, unda asta-sekinlik bilan bo‘ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani erta mustaqillikka undash, unda ba’zi salbiy hislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki u hayotiy tajribalari kamligi uchun asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda harakat qilishi mumkin. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko‘proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir.

Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir mas’ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o‘zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo‘lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. 7-11 yoshli bolalar o‘zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolaning o‘z-o‘zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o‘zlarining ismlariga yanada ko‘proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o‘zining tashqi ko‘rinishi va gavda tuzilishiga beradigan

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

bahosi ham o‘z-o‘zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o‘zlarining yuz-tuzilishlariga alohida e’tibor bera boshlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchining o‘quv faoliyati jarayonida o‘zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o‘zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o‘z faoliyatini o‘zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishining qaror topishiga yordam beradi, o‘quvchi xulq-atvorining motivlashtirishi ham o‘zgaradi. Bunda do‘stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo‘lib qoladi. Axloqiy his-tuygular va shaxsning irodaviy xususiyatlari ham shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iroda tarbiyasi tashabbuskorlik, dadillik, o‘zini tuta bilish, sabotlilik, chidamlilik, qat’iylik, kamtarlik va intizomlilik kabi irodaviy sifatlarni o‘stirish va mustahkamlashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iroda tarbiyasi bolalarda yomon sifatlar paydo bo‘lishining oldini olish va agar bunday sifatlar paydo bo‘lsa, ularni yo‘qotishdan iboratdir.Bolalar irodasining salbiy tomonlaridan biri o‘ziga ishonmaslikdir. O‘ziga ishonmaslik holati o‘qish, mehnat, o‘yin va shu kabi faoliyatlarda tez-tez qaytarilib turadigan muvaffaqiyatsizliklar tufayli yuzaga keladi. F.I.Ivashchenko tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlarning ko‘rsatishicha, o‘qish sharoitida o‘quvchilarning o‘zlariga ishonmaslik holatlari asosan quyidagi sabablar tufayli yuzaga keladi:

a) o‘qishda izchillik prinsipiga rioya qilmaslik tufayli;

b) o‘quvchilarga kuchlari yetmaydigan, ya’ni ortiqcha talab qo‘yib yuborish orqali;

v) ayrim pedagoglar, ota-onalar va shuning bilan birga sinfdoshlarning o‘quvchilar kuchiga, xotira qobiliyatlari va fahm-farosatlariga ishonchsizlik bildirishi tufayli;

g) ana shunday o‘quvchilarni yomon baho olganliklari uchun qo‘rqitish va jazolash orqali.

Iroda tarbiyasi tafakkur va hissiyotlar tarbiyasi bilan mahkam bog‘liqdir. Biz bolalarda tafakkurni taraqkiy ettirishimiz bilan birga, ularda o‘z oldiga to‘la anglab, muayyan maqsadlar ko‘ya olish va juda yaxshi asoslangan qaror va harakatlarni tanlay ola bilish qobiliyatini ham tarbiyalaymiz. Bolalarda ijobiy axloqiy hislarni tarbiyalar ekanmiz, buning bilan axloxiy qaror qabul qilishga va shuning bilan birga, o‘z qaror hamda harakatlariga axloqiy baho berishga odatlantirib boramiz. Vatanparvarlik va vijdoniy burch hissini tarbiyalash ayni vaqtda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining harakat motivlarini tarbiyalash hamdir. 5-6 yoshlarda ko‘zga tashlangan bolalarning xususiyatlari kichik maktab yillari davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi.

O‘smirlik davrining boshlariga kelib, juda ko‘pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo‘ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko‘rinadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko‘nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko‘zga tashlanadi. Kichik maktab davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o‘z-o‘zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o‘qituvchi bilan bo‘ladigan munosabati katta ta’sir ko‘rsatadi. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o‘rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta’lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. I – IV sinf o‘quvchilari o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, turli materiallardan har xil buyumlar yasash, o‘simliklar ekib o‘stirish, uydagi yumushlarga qatnashish kabi bir qancha ishlarda ishtirok etadilar va bu sohada dastlabki ko‘nikma va malakalarni hosil qiladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘z-o‘zini tarbiyalash ma’lum bir aniq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadi. Agar uni asosiy yosh pog‘onalari bo‘yicha qamrab oladigan bo‘lsak, inson ontogenezidagi rivojlanish quyidagicha namoyon bo‘ladi: Birinchi bosqich- o‘z-o‘zini jismoniy va irodaviy tarbiyalashdir. Bu o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi. Insonning bu davrga xos bo‘lgan maqsadi iroda va jismoniy

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

imkoniyatlarni rivojlantirish bo‘lib, jasurlik, chidamlilik, o‘z-o‘zini boshqara olish, matonat, o‘z-o‘ziga ishonch kabi irodaviy sifatlarni maxsus vosita va mashqlar orqali tarbiyalashdan iboratdir.Bu holat jismoniy rivojlanishga ham ta’luqli bo‘lib, shu sababli ko‘pgina bolalar bu yoshda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni boshlaydi. Ikkinchi bosqich- o‘zini xulqiy-axloqiy rivojlantirish bo‘lib, ilk o‘spirinlik davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘z-o‘zini tarbiyalashning ko‘proq uchraydigan maqsadlari - ruhiy, ma’naviy rivojlanish , shaxsning to‘g‘rilik, yaxshilik, saxiylik, do‘stga sodiqlik, sadoqat, muruvvat kabi oliyjanob sifatlarni o‘zida mujassamlashga intilishi kuzatiladi. Uchinchi pog‘ona kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash o‘spirinlik davriga to‘g‘ri keladi. Inson hayotining bu davrini ishga bo‘lgan ishtiyoqni o‘stirish deb qarash mumkin, unda kishining kasbiy zarur bo‘lgan kompleks sifatlarni rivojlantirish, qobiliyat, malaka, ko‘nikma, tanlagan kasbi bo‘yicha mahorat bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan hislatlari shakllanadi.

O‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish maqsadi bu davrda boshlanib, ko‘pgina kishilarda mustahkamlanib boradi va uning hayoti davomida asosiy maqsadlardan biri bo‘lib qoladi. To‘rtinchi bosqich - ijtimoiy-dunyoviy qarashlarda o‘z-o‘zini tarbiyalashdir. Bu inson hayotining 40-45 yoshidan keyingi davri hisoblanadi. Bu yerda o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifasi ijtimoiy holat, dunyoqarash, hayotga ma’lum nazar bilan qarash hisoblanadi. Ba’zi hollarda beshinchi pog‘ona ham uchrab turadi, bunda o‘z-o‘zini aktuallashtirish masalasi qo‘yiladi va hal etiladi. Besh bosqichdan ikkitasi insonni o‘z-o‘zini tarbiyalashdagi rivojlanishi o‘smirlik va yoshlikning ilk davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda o‘z-o‘zini tarbiyalash inson xarakterini belgilab beradi. O‘smir va o‘spirinlarga ularning jismoniy, ruhiy va axloqiy o‘z-o‘zini tarbiyalashida qanday ko‘maklashish mumkin? Bu savolga quyidagicha javob bersa bo‘ladi:

O‘z-o‘zini tarbiyalashning birinchi belgilari paydo bo‘lishi bilan ularning intilishlarini faol qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish lozim. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish, albatta, o‘smirga jismoniy o‘z-o‘zini tarbiyalashda katta yordam beradi. Bolalar uchun ayniqsa, sportning o‘yin tariqasida o‘tkaziladigan turlari foydali, shuningdek, yengil atletika, suzish, kompleks jismoniy tarbiya mashqlari organizmni har taraflama va barkamol rivojlanshiga yordam beradi. Bunday mashqlar jarayonida shaxsning iroda kuchi ham tarbiyalanadi. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullana borish, albatta shu sohada yuqori cho‘qqini zabt etishni maqsad qilib olish degani emas. Asosiysi ular bolaga quvonch keltirishi, sog‘lig‘ini mustahkamlashiga yordam berishidir. Ayniqsa, bu jismonan nimjon bolalar uchun foydali bo‘lib, bunday o‘smirlar bilan ota-onalar, o‘qituvchilar yoki biror katta odam shug‘ullansa samaraliroq bo‘ladi. Bu narsalar albatta kelgusida malakali mutaxassis – trener rahbarligi ostida sport bilan shug‘ullanish imkoniyatini yo‘qqa chiqarmaydi, u holatda tarbiya vazifasi o‘zgacha tus oladi, oddiy jismoniy yoki irodaviy o‘z-o‘zini tarbiyalash, rivojlantirishdan farq qilib, uning chegara doirasidan oshadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog‘li faol munosabatda bo‘lishiga, qanday oliy maqsadlarga hizmat qilishiga bog‘lik ekanini hamisha yodda tutishimiz va biz bolalarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma’naviy - ahloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog‘lom bo‘lishi uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.Мелибаева Р. Н. Из Истории Вопроса Экспериментального Исследования Мышления В Трудах Психологов Советского Периода //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. –2018. –С. 125-127.

2.Нарметова Ю. Соғлиқни сақлаш тизимида психологик хизматнинг бугунги ҳолати ва истиқболлари. –2016.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

3.Нарметова Ю. К. Актуальные проблемы организации психологической службы в клинических учреждениях //Человеческий фактор: Социальный психолог. –2017. –No. 1. –С. 119-123.

4.Норметова Ю. Изучение социально-психологических подходов к проблемам здоровья и болезни //Отистоков к современности. –2015. –С. 304-306.

5. Нарметова Ю. К. Психосоматик Беморларнинг Психоэмоционал Хусусиятлари //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. –2022. –Т. 3. –No. 2. –С. 21-28.